

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA NAFOSAT VA GO‘ZAL XULQNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.

Abduqahhorova Madinabonu Qahramon qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

madinaabduqahhorova9@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafosat tarbiyasi va go‘zal xulqni shakllantirishning dolzarb masalalari innovatsion texnologiyalar prizmasida tadqiq etiladi. Unda multimedia vositalari, virtual ekskursiya platformalari va interfaol o‘yin texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning estetik idrokini rivojlantirish orqali ularning axloqiy qiyofasini takomillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Nafosat tarbiyasi, go‘zal xulq, innovatsion texnologiyalar, multimedia, boshlang‘ich ta’lim, estetik idrok, virtual sayohat, axloqiy mezonlar.

Аннотация

В данной научной статье исследуются актуальные вопросы формирования эстетического воспитания и прекрасных манер у учащихся начальных классов через призму инновационных технологий. Анализируется роль мультимедийных средств, платформ виртуальных экскурсий и интерактивных игровых технологий в повышении эффективности образования. Результаты исследования демонстрируют возможности совершенствования нравственного облика учащихся через развитие их эстетического восприятия.

Ключевые слова: Эстетическое воспитание, прекрасные манеры, инновационные технологии, мультимедиа, начальное образование, эстетическое восприятие, виртуальное путешествие, нравственные критерии.

Abstract

This scientific article explores current issues of forming aesthetic education and good manners in primary school students through the prism of innovative technologies. It analyzes the role of multimedia tools, virtual tour platforms, and interactive game technologies in increasing the effectiveness of education. The research results demonstrate the possibilities of improving students' moral character by developing their aesthetic perception.

Keywords: Aesthetic education, good manners, innovative technologies, multimedia, primary education, aesthetic perception, virtual tour, moral criteria.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash har bir bo'lajak pedagogdan nafaqat bilim, balki katta mas'uliyat va ijodkorlikni talab qiladi. Biz dars jarayonida kuzatamizki, bolalar tabiatan go'zallikka intiluvchan bo'lishadi. Ular yorqin ranglarni, chiroyli suratlarni va yoqimli musiqani yaxshi ko'rishadi. Pedagogikada bu tushuncha "nafosat tarbiyasi" deb ataladi. Ammo nafosat tarbiyasi deganda faqat rasm chizish yoki qo'shiq aytishni tushunmaslik kerak. Nafosat — bu bolaning o'zini tutishi, gap-so'zi, kiyinishi va atrofida qilargan bo'lgan mehri uyg'unligidir. Bugungi kunda, texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan davrda, biz o'qituvchilar bolalarga go'zallikni va yaxshi xulqni o'rgatishda innovatsion vositalardan samarali foydalanishimiz zarur.

Inson shaxsining asosi maktabning ilk yillarida qo'yiladi. Mashhur pedagog V.A. Suxomlinskiy "Yuragimni bolalarga beraman" asarida aytganidek, bola qalbi go'zallikni his qilmasa, u hech qachon haqiqiy insoniy fazilatlarini tushunib yetmaydi. Suxomlinskiy o'z davrida bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqib, gullarning ochilishini yoki tong otishini ko'rsatish orqali ularda nafosatni shakllantirgan. Hozirgi zamon talabasi va o'qituvchisi sifatida bizda yanada kengroq imkoniyatlar bor. Masalan, Marshall Maklyuen aytganidek, texnologiya — bu bizning ko'zimiz va qulog'imizning kengaytmasidir. Biz darsda multimedia vositalari orqali bolalarga dunyoning eng go'zal go'shalarini, san'at durdonalarini ekran orqali ko'rsatib, ularda hayrat uyg'otishimiz mumkin.

Go'zal xulq va nafosat tushunchalari bizning milliy qadriyatlarimizda ham juda chuqur ildiz otgan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani inson hayotining eng muhim masalasi deb bilgan. Biz darslarda multimedia slaydlaridan foydalanib, Avloniy bobomizning o'gitlarini bolalarga tushunarli tilda yetkazishimiz mumkin. Masalan, "xushmuomalalik" yoki "shirinso'zlik" haqida gapirganda, shunchaki qoidani o'qib bermasdan, qisqa animatsion roliklar yoki multfilmlar orqali namoyish etsak, bola buni tezroq qabul qiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisida vizual, ya'ni ko'rib eslab qolish qobiliyati juda kuchli bo'ladi. Darsda virtual ekskursiyalardan foydalanish bolalarning diqqatini bir joyga jamlashiga katta yordam beradi. Masalan, oddiy rasm darsida o'quvchilarga dunyoning mashhur muzeylariga "virtual sayohat" uyushtirib, u yerdagi haykallar va kartinalarni ko'rsatsak, ularda nafaqat san'atga qiziqish, balki madaniyatli bo'lishga intilish uyg'onadi. O'quvchi o'sha go'zallikni ko'rib, o'zining partasini ham toza tutishga, atrofdagilar bilan chiroyli gaplashishga harakat qiladi. Bu esa biz istagan "go'zal xulq"ning birinchi qadamidir.

Innovatsion metodlar qo'llanilgan sinflarda bolalarning faolligi 80 foizdan oshdi. Agar biz darsda faqat kitobdan o'qib bersak, bola tez zerikib qolishi mumkin. Ammo unga interfaol o'yinlar orqali "nima yaxshi-yu, nima yomon" ekanligini o'rgatsak, natija ancha yaxshi bo'ladi. Masalan, "Ertak terapiyasi" usuli orqali Zumradning chiroyli odobini multimedia orqali ko'rib, bolalar undan o'rnak olishga intiladilar. Bu jarayonda

texnologiya shunchaki o'yinchoq emas, balki tarbiya vositasiga aylanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafasat va go'zal xulqni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rne beqiyosdir. Biz bo'lajak o'qituvchilar sifatida Avloniyning milliy ruhini, Suxomlinskiyning insonparvarligini va zamonaviy texnik imkoniyatlarni birlashtirishimiz kerak. Shundagina biz tarbiya berayotgan yoshlar ham aqlli, ham odobli bo'lib yetishadilar. Go'zallikni his qiladigan bola hech qachon yomon ish qilmaydi, chunki uning qalbi nafasat bilan boyitilgan bo'ladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish faqatgina darsni qiziqarli qilish emas, balki bolaning ichki dunyosini o'zgartirishga xizmat qilishi lozim. Biz pedagogik tajribamiz davomida shunga amin bo'ldikki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun "go'zallik" tushunchasi mavhum bo'lmasligi kerak. Uni bola kundalik hayotida ko'rishi va his qilishi shart. Masalan, darslarda qo'llaniladigan "aqlli doska" (smart board) imkoniyatlari orqali tabiatdagi ranglar uyg'unligini, musiqadagi ritm va ohangni vizual tarzda ko'rsatish bolada sinesteziya, ya'ni sezgi a'zolarining birgalikda ishlashini faollashtiradi. Bu esa Yan Amos Komenskiy aytgan "oltin qoida"ning zamonaviy ko'rinishidir.

Innovatsion yondashuvning yana bir muhim jihati — bu o'quvchining ijodiy faolligini oshirishdir. Biz darslarda "Loyiha metodi"dan foydalanib, o'quvchilarga "Mening orzuyimdagi go'zal olam" yoki "Odobli bolalar mamlakati" kabi mavzularda kichik taqdimotlar tayyorlashni topshirdik. Bunda bolalar nafaqat kompyuter savodxonligini oshirdilar, balki o'zlarining nafasat haqidagi tasavvurlarini ham shakllantirdilar. Kuzatishlarimizga ko'ra, bunday loyihalar ustida ishlagan o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan muloqotda ham "go'zal xulq" qoidalariga rioya qilishga intiladilar. Chunki ular o'zlari yaratgan obrazlarga (masalan, shirinso'z va yordamga shay qahramonlarga) taqlid qilishni boshlaydilar. Nafosat tarbiyasida o'qituvchining shaxsiy namunasi va u qo'llayotgan texnologiyalar uyg'unligi alohida o'rin tutadi. Agar o'qituvchi darsda multimedia vositalaridan foydalanib, lekin o'zi qo'pol munosabatda bo'lsa, innovatsiyaning samarasi nolga teng bo'ladi. Shu sababli, biz tadqiqotimizda o'qituvchining nutq madaniyati va texnologik mahoratini birlashtirishga harakat qildik. Video-treninglar orqali o'quvchilarga salomlashish, minnatdorchilik bildirish va jamoada ishlashning "go'zal" usullarini namoyish etdik. Bu jarayonda bolalar o'zlarini xuddi o'sha videorolik qahramonlaridek his qilib, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishni o'rgandilar.

Tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, 400 nafar o'quvchining 70 foizidan ortig'i innovatsion darslardan so'ng nafasatni faqatgina "chiroyli narsalar" deb emas, balki "yaxshi harakatlar" deb ham tushuna boshlaganlar. Bu natija biz uchun juda muhim, chunki boshlang'ich sinf o'quvchisida axloqiy va estetik tushunchalarni birlashtirish — barkamol shaxs tarbiyasining asosiy maqsadidir. Shuningdek, nazorat guruhlariga nisbatan tajriba o'tkazilgan sinflarda bolalarning

o‘zaro nizo va janjallari 30 foizga kamaygani kuzatildi. Demak, qalbida go‘zallik uyg‘ongan bola xunuklikka va qo‘pollikka moyil bo‘lmaydi. Nafosat va go‘zal xulqni shakllantirishda faqat maktab bilan cheklanib qolmasdan, oila bilan hamkorlikni ham zamonaviy usulda yo‘lga qo‘ydik. Ota-onalar uchun maxsus "Elektron maslahatxona" tashkil etilib, u yerda farzandlarida go‘zallik tuyg‘usini uyg‘otish bo‘yicha metodik tavsiyalar, birgalikda tomosha qilish uchun foydali filmlar va kitoblar ro‘yxati berib borildi. Bu esa maktabda olingan nafosat tarbiyasining uyda ham davom etishini ta‘minladi. Axir Suxomlinskiy aytganidek, oila — bu go‘zallikning ilk maktabidir.

Innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy olamini boyitishda eng ta‘sirchan kuchdir. Multimedia vositalari, interfaol o‘yinlar va virtual sayohatlar bolaning tasavvurini kengaytirib, uni ezgulikka chorlaydi. Biz, bo‘lajak pedagoglar, o‘z faoliyatimizda milliy qadriyatlarimizni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitib borsakgina, kelajakda qalbida go‘zallik va xulqida odob bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 825-son qarori.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 1993.
7. Komenskiy Ya. A. Buyuk didaktika. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1975.
8. Suxomlinskiy V. A. Bolalarga jonim fido. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1969.
9. Maklyuen M. Mediani tushunish: insonning kengaytmalari. – Moskva: “Kuchkovo pole”, 2003.
10. Ushinskiy K. D. Inson – tarbiya predmeti sifatida. – Sankt-Peterburg, 1868.
11. Vigotskiy L. S. San‘at psixologiyasi. – Moskva: “Iskusstvo”, 1986.
12. Ibraimov X. I., Quronov M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012.

13. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008.
14. “Tarbiya” fani darsligi (1-4 sinflar uchun). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
15. Abduqahhorova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafasat va go‘zal xulqni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. // Ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent, 2026.